

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TURG'UNOVA DILDORA RAXMATJONOVNA

**O'ZBEK TILIDA HAYVONLAR HARAKATINI IFODALOVCHI TIL
BIRLIKLARINING LINGVISTIK TADQIQI**

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Turg‘unova Dildora Raxmatjonovna

O‘zbek tilida hayvonlar harakatini ifodalovchi til birliklarining lingvistik tadqiqi 3

Тургунова Дилдора Рахматжоновна

Лингвистическое исследование единиц языка, выражающих движения животных в узбекском языке 23

Turgunova Dildora Rakhmatjonovna

Linguistic study of language units expressing movements of animals in the uzbek language..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TURG'UNOVA DILDORA RAXMATJONOVNA

**O'ZBEK TILIDA HAYVONLAR HARAKATINI IFODALOVCHI TIL
BIRLIKLARINING LINGVISTIK TADQIQI**

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil14033 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) tilda Andijon davlat universiteti veb-sahifasi (www.adu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Saidxonov Ma'murjon Muhammedovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abdupattoyev Muhammadtohir Tojimatovich
filologiya fanlari doktori, professor

Kabilova Zebiniso Muratovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "16" may soat 11⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy. Telefon/faks: 0 (374) 223 88 30, e-mail: agsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2087-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 170100, Andijon shahri, Universitet ko'chasi, 129-uy. Tel.: 0 (374) 223 88 14).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "3" may kuni tarqatildi.

(2025-yil "3" may daqiqa 03/25 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.Sh.Sobirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

F.F.Usmanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.d., dotsent

D.A.Nurmanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida antropotsentrik nazariyalar tilning turli hodisalariga keng tatbiq etilayotgan bugungi kunda har bir xalq o'z tilining mohiyatini o'rganishga katta e'tibor bermoqda. Tilshunoslikda kundan kunga lingvistik birliklarning yangi qirralari kashf etilmoqda va buning samarasi o'laroq yangi tushunchalar, terminlar paydo bo'lmoqda. Shu bois bugungi kunda tadqiqot ishlarining ko'lamini kengaytirish, til va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish, insonlarning lingvistik merosga bo'lgan munosabatini, tabiat va inson aloqasidagi madaniy an'analarni chuqurroq tadqiq etishga amaliy ehtiyoj mavjud.

Dunyodagi globallashuv va kuchli integratsiya jarayonida davlatimiz miqyosida o'zbek tilining mavqeyini rivojlantirish, davlat tili sifatida maqomini oshirish, jonajon ona tilimizning sofligini saqlash masalasi har jihatdan dolzarblik kasb etmoqda. Til – o'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviy olamini yot g'oyalardan, ommaviy madaniyat ta'sirida oqib kirayotgan turli salbiy munosabatlardan saqlovchi yagona ilohiy kuchdir. Darhaqiqat, u bebaho hisoblangan milliy-madaniy qadriyatdir. O'z qadriyatlarini unutmagan, e'zozlagan xalq esa rivojlanib boraveradi. Mazkur dissertatsiyaga shu g'oya asosida, o'zbek tilining boy, uzoq yillik tarixiga nazar tashlash, uni yaratuvchi, undan foydalanuvchi etnosning olamni idrok qilishi, ijtimoiy faoliyati, milliy-mintaqaviy mansubligi, milliy-madaniy xususiyatlarining til vositasida aks etishi nuqtayi nazaridan yondashilgan.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda tilimizning maqomini oshirish borasida qabul qilingan qator farmon va qarorlar uni zamonaviy tadqiqot usullariga tayanib har tomonlama chuqur o'rganishga imkoniyat yaratib bermoqda. Binobarin, “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”¹. Dissertatsiya mavzusining, antropotsentrik, lingvokulturologik, pragmalingvistik, etnolingvistik aspektlarga aloqadorligi uning bugungi kun talablariga mosligini ko'rsatadi. Negaki, til egalarining hayvonlar harakati haqidagi umumiy bilimlari, kognitiv ko'nikmalari, til va madaniyat bog'liqligini o'rganuvchi antropotsentrik yo'nalishda ham tadqiq etish muhim vazifalardan biridir. Bu esa dissertatsiya mavzusining dolzarbligini asoslaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son Qarori, “Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida”gi PF-1869-son, “Oliy o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PF-4958-son, shuningdek, 2020-yil 20-oktabrda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сон Фармони. Манба: <http://lex.uz/docs/4561730> (Murojaat etilgan sana: 04.01.2025).

PF-6084-son Farmonlari hamda ta'lim sohasini rivojlantirish mazmunidagi boshqa normativ hujjatlarda ko'rsatilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun mazkur dissertatsiya muayyan darajada hissa qo'shadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy va o'zbek tilshunosligida fe'l leksemalar, ularning mazmun mundariyasi, ma'noviy guruhlari yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar talaygina. Jahon va o'zbek tilshunosligida bu yo'nalishda E.D.Polivanov, A.N.Kononov, A.Shcherbak, A.G'ulomov, A.Hojjiyev, M.Sodiqova, I.Qo'chqortoyev, R.Rasulov, S.Muhamedova² va boshqa ko'plab olimlarning izlanishlari alohida e'tiborga molikdir.

Sistem-struktur jihatdan hayvonlarni leksik-semantik guruhlarga bo'lish va zoonimlarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash bo'yicha ham muayyan darajada tajribalar to'plangan. Bu yo'nalishda o'zbek tilshunosligida olib borilgan B.Abdushukurov, H.Saidova, N.Nishonova, B.Zaripov, A.Sobirov, D.Tosheva, B.Jo'rayeva, D.Yuldasheva³ kabi olimlarning tadqiqotlari ushbu yo'nalish taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir.

Shuni alohida e'tirof etish kerakki, til fondida hayvonlar xatti-harakatini ifodalovchi leksemalarning qamrovi, etimologiyasi, tarixiy shakllari, hayvon harakatining kognitiv idrok etilishi, tasavvurda obraz hosil bo'lishiga ko'ra lisoniy nomlanishi, bunday harakatlarning mental idroki tilshunoslikda hali o'z yechimini topmagan masalalardan biri bo'lib, mazkur tadqiqotning o'zbek tilshunosligi uchun muhim ekanligidan dalolat beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya

² Bu haqda qarang: Поливанов Е.Д. Краткая грамматика узбекского языка. Глагол. Часть II. – Ташкент-Москва: Туркпечать, 1926. – С. 21-35.; Кононов А.Н. Грамматика узбекского языка. – Ташкент, 1948. – С. 134-153.; Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. – Москва-Ленинград, 1962. – С. 274.; Гуломов А.Ф. Фейл. Ҳозирги замон ўзбек тили курсидан материаллар. – Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1954. – Б. 352.; Ҳожиёв А. Фейл. – Тошкент: Фан, 1973. – С. 192.; Содиқова М. Фейл стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975. – С. 107.; Қўчқортўев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 168.; Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 143.; Муҳамедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 120.

³ Qarang: Абдушукуров Б. XI-XIV аср туркий ёзма обидалар тилидаги зоонимлар: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – Б. 23.; Саидова Ҳ. Ўзбек тилида ҳайвон номларининг шахс тавсифи вазифасида қўлланилиши: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 1995. – Б. 22.; Нишонова Н. Ўзбек тилида "ҳайвон" архисемали лексемалар майдонинининг мазмуний таҳлили: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – Б. 24.; Зарипов Б.П. Зоонимларнинг бадий санъат турларини ҳосил қилишдаги иштироки (Алишер Навоий асарлари асосида): Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – Б. 24.; Собиров А. Ўзбек тилининг лексик, сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 160.; Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – Б. 51.; Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри (DSc) ...дисс. – Самарқанд, 2019. – Б. 237.; Юлдашева Д. Ўзбек тили орнитонимларининг структуравий ва семантик тадқиқи: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. – Б. 52.

Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tilini antropotsentrik tamoyil asosida tadqiq etish” mavzusiga asosan bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hayvon harakatini ifodalovchi lisoniy birliklarning lingvistik xususiyatlarini ochib berish va zoonim tarkibli lingvomadaniy birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek tilshunosligida zoonimlar masalasining yoritilishi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish, o‘zbek tilida hayvonlar harakati bilan bog‘liq til birliklarini aniqlash;

zamonaviy tilshunoslik fanida hayvonlar harakatini ifodalovchi til birliklari masalasini o‘rganish zaruratini asoslash;

o‘zbek tilida hayvonlar harakatlarini ifodalovchi lisoniy birliklarning tilshunoslikning eski turkiy til, eski o‘zbek tili, hozirgi o‘zbek tili davri miqyosida o‘zaro farqli va mushtarak jihatlarini yoritish;

tilshunoslik nuqtayi nazaridan hayvon xatti-harakati ishtirok etgan maqollar, iboralar kabi lingvomadaniy birliklarining til “fondi”da shakllanishiga oid funksional va stilistik imkoniyatlarni yoritish.

Tadqiqotning obyektini hayvon harakatini ifodalovchi til birliklarining qamrovini aniqlashda ahamiyatli bo‘lgan lug‘atlar, diskursiv matn, parema va frazemalar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek tilida hayvonlar harakatini ifodalovchi til birliklarining kognitiv, milliy-madaniy aspekti va lingvistik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsiflash, qiyoslash, tasniflash, pragmatik va kontekstual tahlil, leksikografik qiyoslash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hayvonlar harakatini ifodalovchi til birliklari strukturasi zoonim + harakat hamda harakat + mazmun usulida shakllanganligi aniqlangan, ularning idroki masalasida vizual, mantiqiy va hissiy yondashuv tamoyillari, idrok masalasining umumiy va milliy-madaniy farqlari ochiqqlangan;

hayvonlar harakatini ifodalovchi leksemalar leksik-semantik guruhga bo‘linib, ulardan ko‘proq ot, it va tuyaning turli harakatini ifodalovchi birliklarning insonning shunday harakatlarini ifodalashga ixtisoslashuvi kabi assotsiativ imkoniyatlari hamda milliy-madaniy xususiyatlari ochiqqlangan;

zoonim komponentli maqol va iboralar hayvonlar harakatini ifodalovchi til birliklari asosida paydo bo‘lishi, ushbu harakatlar etnosning o‘ziga xos diniy va milliy-madaniy mansubligini, dunyoqarashini, xulq-atvor meyorlarini aks ettiruvchi vosita sifatida shu mezonlar asosida tipik va universal obraz yaratish xususiyatiga egaligi asoslangan;

tilda hayvonlar harakati bilan bog‘liq metaforik tasavvurlarning paydo bo‘lishida arxetipik tasavvurlarga asoslangan lingvomenta jihatlarining ustunlik qilishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

til leksik fondining katta qismini hayvonlar harakatini ifodalovchi leksemalar tashkil qilishi dalillangan;

lisoniy nuqtayi nazardan tizimning elementi sifatida hayvon, harakat sifatida hayvon harakatini ifodalovchi lingvistik birliklar olamni biluvda ahamiyatli ekanligi, tahliliy materiallar asosida kommunikatsiya jarayonini tashkil qiluvchilarning maqsadi, nutqiy-pragmatik, milliy-madaniy imkoniyatlarini ko'rsatishi izohlangan;

zoonimlar harakatini ifodalovchi lisoniy vositalardan foydalanishda kommunikantlar semantik farqlarni to'g'ri anglashlari va mos ravishda qo'llashlari muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo'yilishi, nazariy ma'lumotlarni ilmiy manbalardan olingani, xulosalarning zamonaviy lingvistik tahlil metodlari orqali asoslangani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga keng joriy etilgani, olingan natijalar tegishli vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlangani, hayvonlar harakatini ifodalovchi til birliklari tahlilida o'zbek tili tabiatidan kelib chiqib yondashilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hayvonlar harakati ishtirok etgan til birliklari bir butun lingvistik obyekt sifatida tadqiq qilingani, ularning kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari aniqlangani va shu asosda yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyitilganida ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, hayvonlar harakatini ifodalovchi til birliklari to'g'risidagi lingvistik tahlillar kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, nutq madaniyati, lingvomadaniyatshunoslik, etimologiya, pragmalolingvistika, dialektologiya, leksikografiyaga oid monografiyalar, o'quv qo'llanmalar va lug'atlar yaratishga, shuningdek, ushbu sohalar bo'yicha amalga oshiriladigan tadqiqotlar uchun bevosita material sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek tili leksik fondida hayvonlar harakatini ifodalovchi til birliklarining qamrovi masalasini, etnolingvistik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish, ularning leksik-semantik guruhlarini aniqlash yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

hayvonlar harakatini ifodalovchi til birliklari strukturasi zoonim + harakat hamda harakat + mazmun usulida shakllanganligi, ularning idroki masalasida vizual, mantiqiy va hissiy yondashuv tamoyillari, idrok masalasining umumiy va milliy-madaniy farqlari xususidagi xulosa va natijalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Yoshlar" telekanali tomonidan tayyorlangan "Tabiat shifoxonasi", "Zavqli o'rmoncha", "Uyimdagi tabiat", "Mo'jizalar oroli", "Qiziqarli sayohat", "Assalom, bolajon" teledasturlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan ("Yoshlar teleradiokanali" aksionerlik jamiyatining 2024-yil 14-apreldagi 14-03-54-son ma'lumotnomasi). Natijada teleko'rsatuvlarning mazmunan boyitilishi, uning ta'sirchanligi ortishi ta'minlangan;

hayvonlar harakatini ifodalovchi leksemalar leksik-semantik guruhga bo'linib, ulardan ko'proq ot, it va tuyaning turli harakatini ifodalovchi birliklarning insonning shunday harakatlarini ifodalashga ixtisoslashuvi kabi assotsiativ imkoniyatlari hamda milliy-madaniy xususiyatlari xususidagi xulosa hamda nazariy ma'lumotlardan Andijon viloyat teleradiokompaniyasining "Tafakkur", "Xazinamsan kitob", "Ma'naviyat" kabi teledasturlarini tayyorlashda foydalanilgan

(Andijon viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 5-dekabrda 01-13/223-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu teledasturlar va eshittirishlarning ta'sirchan bo'lishi ta'minlanishi bilan birga nutqiy madaniyat, nutqiy etiket kabi o'zbekona milliy qadriyatlar doirasida samarali muloqot tashkil etish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 3 ta respublika konferensiyasida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ulardan 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 150 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Til – kognitiv tizimning faoliyat mahsuli**" deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan iborat. Bobning "**Kognitiv tilshunoslik va hayvonlar harakatining idroki**" nomli birinchi faslida antropotsentrik paradigmaning yetakchi yo'nalishlaridan biri bo'lgan kognitiv tilshunoslik fani haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar, konsept haqidagi ilmiy talqinlar va hayvonlar harakatining kognitiv idrokida vizual, mantiqiy-hissiy, milliy-madaniy yondashuvlar xususida so'z yuritiladi.

Tilshunoslik ichki va tashqi turlarga bo'linib, ular o'zaro bir-biri bilan dialektik bog'liqdir. Ularni birlashtirib turadigan tayanch nuqta borligi ilk bor Boduen de Kurtene tomonidan e'tirof etilgan⁴. Xuddi shu g'oya kognitologiya ilmining tug'ilishiga zamin bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Keyinchalik Yevropa tilshunosligida zamonaviy kognitologiya ilmining keng o'rganilishi natijasida lisoniy hodisalarning mohiyati, yangi qirralari kashf etila boshlandi.

Antropotsentrik paradigmaning yetakchi yo'nalishlari ko'plab tilshunoslar tomonidan kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik ekanligi e'tirof etilgan⁵. Amalda isbot qilingan, yangidan kashf etilgan bilim, malaka va ko'nikmalarga asoslangan kognitiv lingvistika tilning mantiqiy, ruhiy-psixologik, tarixiy jihatlariga alohida diqqat qiladi⁶.

⁴ Бодуэн де Куртенэ И.А. О задачах языкознания. В кн.: Избранные труды по общему языкознанию. М.: Изд-во АН СССР, 1963. Т.1. – С. 203-222.

⁵ Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.

⁶ Юсупов Э. Фалсафа (ўқув қўлланма). – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа концерни бош тахририяти, 1999. – Б. 206-207.

Hayvon harakatini ifodalovchi til birliklari lisoniy jarayon va kognitivlik bilan bevosita bog‘liqdir. Misol uchun, o‘zbek tilida *sudralmoq* so‘zi gavdasi yerda sudralib yurganligi uchun, kaltakesak va shunga o‘xshash hayvonlar harakatini⁷, *o‘rmalamoq* so‘zi hasharotlar (chumoli, o‘rgimchak)ning harakatini ifodalaydi⁸. Ularning dastlabki ma’nosi hayvonlarning harakat turiga tegishli bo‘lsa, metaforik ma’noda u inson faoliyatini, holatini tasvirlash uchun qo‘llanadi. Masalan: “*sudralib hammadan kech keldi*” sekin, sust harakat qilish ma’nosini; “*atrofda o‘rmalagan dushmanlar ko‘rina boshladi*” yashirinib harakat qilish ma’nosini ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan sudralmoq leksemasi muayyan nutqiy vaziyatda kommunikativ akt ishtirokchilari tomonidan qo‘llanganda, shaxsni hayvonga o‘xshatish, hayvonning yurishiga o‘xshatish, “sekinlik” ma’nosi, “hurmatsizlik” ma’nosi, “yoqimsizlik”, “noroziqlik”, “ziddiyatga borganlik” ma’nolari va ijtimoiy munosabat haqidagi ma’lumotlar mental idrok qilinadi.

Frazeologizmlar va paremlar orqali hayvonlarning turli harakatlarining o‘rganilishi nafaqat ularning yasalishidagi tizimli munosabatni aniqlab beradi, shu bilan birga, dunyoqarash, idrok masalasining umumiylikini va milliy-madaniy farqlarini ham ko‘rsatishga xizmat qiladi. Ulardagi ana shu jihatlarni til birliklari misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Masalan, “*Arslonning bo‘kirgani, sichqonning o‘lgani*” maqoli chuqur falsafiy-ijtimoiy mazmuni ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu maqolni kognitiv nuqtayi nazardan maqolda aks etgan ramziy ma’nolari asosida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, unda arslon va sichqon kabi ikki asosiy obraz keltirilgan. Arslon dunyo xalqlari etnomadaniyatida kuch-qudrat, hokimiyat va buyuklik timsoli bo‘lsa, sichqon esa ojizlik, zaiflik, shu bilan birga, kichik ijtimoiy guruh vakillarining timsolidir. Ushbu obrazlar orqali jamiyatdagi kuchli va zaif, hokimiyat vakillari va kichik ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi munosabatlarni tushunish mumkin. Arslon va sichqon inson ongida bir-biriga zid sifatlarga ega hayvonlarni ifodalagan. Bunday ziddlikning inson tafakkurida hosil bo‘lishiga sabab esa hayvonlarning harakatlaridagi belgilardir. Kuzatishlarga asoslanadigan bo‘lsak, arslon uchun bo‘kirishi tabiiy odatiy xatti-harakat sifatida, sichqon uchun esa bu eng kuchli xatar sifatida ko‘rinadi. Maqol katta ijtimoiy ma’noga ega bo‘lib, jamiyatdagi kuchli va kuchsiz qatlamlar o‘rtasidagi ziddiyatni, kuch balansining tengsizligini ramziy tarzda ko‘rsatmoqda. Inson ongi buni tahlil qilishda mantiqiy va hissiy yondashuvni uyg‘unlashtirib, o‘zi yashayotgan muhitdagi ijtimoiy munosabatlar, hokimiyat va tengsizlik muammosini osongina bog‘laydi. Kognitiv ong axloqiy qoidalarni shakllantiradi va adolat mezonini buzilgan ijtimoiy muhit haqida ham fikrlashga majbur qiladi. “*Arslonning bo‘kirgani sichqonning o‘lgani*” maqoli kognitiv tahlil qilinganida faqatgina ramziy obrazlarni emas, balki kuch va adolatsizlikni ham o‘zida mujassam etishini ko‘rsatadi. Bu maqol rahbar insonlarning o‘z kuch-qudratini adolatli ishlatishga chaqirish maqsadida yaratilgan.

“*Jo‘jaxo‘rozdek bo‘ynini cho‘zmoq*” o‘xshatishi vizual, hissiy va psixologik jarayonlarning faollashishi natijasida yaratilgan. Biz odatda bo‘ynini cho‘zayotgan hayvonni ko‘rganimizda uning xatti-harakatlariga qiziqamiz yoki ehtiyotkor bo‘lamiz. Vizual yondashuvga ko‘ra bilgan va bilmagan, kuchi yetgan va yetmagan

⁷ <https://uz.wiktionary.org/wiki/> (Murojaat sanasi: 18.01.2025)

⁸ <https://izoh.uz/> (Murojaat sanasi: 18.01.2025)

narsasiga jo'jaxo'roz (xo'roz emas) bo'ynini cho'zgan holatda, himoya organlaridan foydalanib hujumkor shaklda harakatlanadi. Bu harakat odamda ham shunday xissiyotni keltirib chiqaradi. Misol uchun, odatda o'tish davrida ayrim o'g'il bolalarda o'ziga xaddan oshiq baho berishi kabi agressiv psixologik holat kuzatiladi⁹. "Jo'jaxo'rozdek bo'ynini cho'zmoq" o'xshatishi kognitiv tahlil nuqtayi nazaridan hayvonning xatti-harakatini insonning holatiga bog'lash orqali keng ma'nodagi ifodani yaratishga xizmat qilmoqda.

"Tuyog'ini shiqillatmoq" iborasi tuzilishidagi asosiy element tuyoq. U ham miyadagi vizual tasvir yaratib ot yoki boshqa yirik hayvonlarning oyoqlarida bo'ladigan qattiq a'zo bilan bog'lanmoqda. Ammo iboraning shakllanishiga tuyoq a'zosi emas, uning harakatlanishi natijasida chiqadigan ovoz elementi asos qilib olingan. Shiq-shiq tovushi hayvon tuyog'ining tez-tez harakat qilishi natijasida chiqadi. Bu o'rinda aynan tezlik semasi ham muhim ahamiyatga ega. Kognitiv yondashuvga ko'ra hayvonning biologik xatti-harakatidagi shiqillagan tovush chiqarib tez-tez yurish harakati ramz sifatida insonning hissiy munosabatiga qiyoslanmoqda.

Aytish mumkinki, hayvon harakatini kognitiv idrok etilishi, tasavvurda obraz hosil bo'lishiga ko'ra lisoniy nomlanishi, bunday harakatlarning mental idroki tilshunoslikda hali o'z yechimini topmagan masalalardan biri hisoblanadi.

Bobning "**Jahon va o'zbek tilshunosligida milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi til birliklarining tadqiqi**" nomli ikkinchi faslida etnolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik sohaslarida lisoniy hodisalarning milliy-madaniy xususiyatlarini yoritishga bag'ishlangan tadqiqotlar borasida, bu ikki sohaning predmetini tashkil qilgan ramzlar va ularning hayvonlar harakati bilan bog'liq jihatlari xususida fikr yuritiladi.

Darhaqiqat, inson fikrlarini ifodalash ehtiyoji har doim eng muhim sanalgan. His-tuyg'u, orzu-istaklarining ifodachisi bo'lgan til masalasi esa insoniyatning hamma davrlarida asosiy muammolardan biri bo'lib kelgan. Inson va tabiat aloqasi kognitiv tizimning boyib borishini taqozo etadi. Buning natijasida lisoniy qatlam kengayib, borliqning barcha elementlarini qamrab oladi. Natijada til tizimida predmet bilan birga unga bog'liq bo'lgan barcha elementlar, shuningdek, harakatlar ham lisoniy ifodalanadi.

Bizning nazarimizda, xalqning dunyoqarashini, uning tabiatga bo'lgan munosabatini, hayvonlar va madaniy komponentlarning o'zaro aloqasini etnolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik sohaslari asosida tadqiq qilish eng to'g'ri usuldir.

Ramz – etnolingvistika va lingvomadaniyatshunoslikning eng asosiy birligidir. Hayvonlarning muayyan xalq etnomadaniyatida etalonga aylanishining, ramziy xususiyat kasb etishining muhim bo'lgan jihati o'sha hayvonga xos bo'lgan xatti-harakatlardir. Bo'ri va yo'lbarsdagi *o'ljasiga tashlanish harakati, tez chopish harakati, o'ljasini g'ajish harakati, o'ziga xos yovvoyi ovoz chiqarish harakati* "jasurlik" ramziga; qo'ydagi qayoqqa haydasa, yoki bo'yniga arqon bog'lab yetaklasa, yuraverish xususiyati asos qilib olinib, etnomadaniyatimizda "qo'ydek

⁹ <https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlik-davri-psixodiagnostikasi-va-psixokorreksiyasi/viewer> (Murojaat sanasi: 22.01.2025).

yuvosh” ijobiy o‘xshatishi va “qo‘ydek yetalama” salbiy o‘xshatishi mavjud. Bundan tashqari, qo‘y “ahmoqlik” ramzi – *qo‘ykalla*; “noshukurlik” ramzini ham ifodalaydi: *yeb turib baramoq*. Shuningdek, hayvonni “oson boshqarish” harakati “sodda xalq”, “ishonuvchan jamoa” kabi stereotiplarni shakllantirgan. Turkiy xalqlarda ot do‘stlik, vafo va sadoqat, yor, sog‘lik, navqironlikning etaloni hisoblanadi. Chunki otga tegishli bo‘lgan *chopish, gijinglash, kishnash* kabi xatti-harakatlarni insonlar hayvonning his-tuyg‘ularini ifodalash usuli deb tasavvur qilganlar. Otning o‘z egasini yaxshi tanib olishi, uni ko‘rganda oldingi ikki oyoqlarini tepaga ko‘tarib sakrashi, xavf-xatarni ko‘rganda xuddi shunday harakatlarni amalga oshirishi “*ogoh qilish*”, “*munosabat o‘rnatish*”, “*himoya qilish*” kabi mazmunlarni ifodalaydi. Shuning uchun gijinglamoq va kishnamoq so‘zlari turkiy xalqlar hayotida, hayvon bilan o‘rnatilgan psixologik vaziyatda, turmush tarzida, nominativ vazifani bajarish bilan birga “navqironlik”, “do‘stlik”, “sadoqat” kabi etalonlarga asos bo‘lgan.

Bobning uchinchi fasli “**O‘zbek tilida hayvonlar harakatini ifodalovchi leksemalarni o‘rganishning nazariy asoslari**” deb nomlangan bo‘lib, bu faslda tilshunoslikda harakatni ifodalovchi fe‘l so‘z turkumi va uning mazmun mundarijasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar va hayvon harakatini ifodalovchi fe‘llarning til fondida soni va salmog‘i xususida fikr yuritilgan.

O‘tgan asrda sistem-struktur tilshunoslikda ko‘plab so‘z turkumlari qatori fe‘l so‘z turkumi ham yangicha yondashuvlar asosida keng tadqiq qilindi. Bu so‘z turkumining grammatik kategoriyalari, ma‘no mundarijasi, semantik maydonlari, lug‘aviy valentlik va stilistik imkoniyatlari, fe‘l leksemalarning leksik-semantik guruhlari hamda sintaktik imkoniyatlari chuqur o‘rganildi. Xususan, A.Hojiyev, Sh.Shukurov, M.Sodiqova, I.Qo‘chqortoyev, R.Rasulov A.Nurmonov, S.Muhammedova va boshqa ko‘plab tilshunos olimlarimizning tadqiqotlari shular jumlasidandir¹⁰. Fe‘l leksemalarni: a) harakatni ifodalovchi; 2) holatni ifodalovchi fe‘llar kabi ikkita guruhga bo‘lish mumkin. Ular esa o‘z navbatida tirik organizmlarning barchasi uchun umumiy; insonga xos; hayvonga xos bo‘lgan harakat-holatni ifodalovchi leksemalar kabi turlarga bo‘linadi¹¹.

Hayvon harakatini ifodalagan *o‘rmalamoq* hasharotlarning yurishini, *yo‘rttirmoq, yo‘rg‘alamoq, tisarilmoq* faqat otlarning yurishini, *lo‘killamoq* tuyaning, *shatta otmoq, chichang‘lamoq* ot va sigirning yurishini ifodalovchi fe‘llar¹²; *chug‘urlashmoq, chaqchaqlashmoq, cho‘qishmoq, xirillashmoq hangramoq, akillamoq, bobillamoq, chug‘urlamoq, chuvillamoq, vag‘illamoq* kabilar esa simmetrik nutq fe‘llari sifatida identifikatsiyalovchi, differensiyalovchi va hosila semalari tadqiq qilingan¹³. Biroq bu kabi tadqiqotlarning barchasida

¹⁰ Ҳоҗиев А. Фейл. – Тошкент, 1973. – С. 192.; Шукуров Ш. Настоящее и будущее времена глагола в письменных памятниках староузбекского языка: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 1960. – С. 24.; Содиқова М. Фейл стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975. – С. 107.; Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 107.; Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989.; A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2010.; Мухамедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги. – Тошкент: Фан, 2013.– Б. 120.

¹¹ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – В. 18.

¹² Содиқова М. Фейл стилистикаси. – Ташкент: Фан, 1975. – В. 63.

¹³ Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 147.

hayvonlar harakatini ifodalovchi fe'llarning leksik ma'nosi, ya'ni signifikativ tomoni, etimologiyasi inson nutqiga nisbatan qo'llanilishiga asos bo'lgan semasi va sinonimik jihatlari e'tibordan chetda qolgan. O'zbek tilida hayvonlar harakatini ifodalovchi so'zlarning ma'nosi va harakat turiga asoslanib quyidagi sinonimik qatorini hosil qilish mumkin: 1. Tovush chiqarish bilan bog'liq fe'llar: uvlamoq, kishnamoq, qichqirmoq, chirqillamoq va shu kabilar. 2. Yugurish bilan bog'liq fe'llar: sakillamoq, chopmoq, lo'killamoq, shataloq otmoq va shu kabilar. 3. Uchish bilan bog'liq fe'llar: qanot qoqmoq, uchmoq, qo'nmoq, havolanmoq, parvoz qilmoq va shu kabilar.

Tadqiqotning ikkinchi bobi "**Hayvonlar harakatining lisoniy tasnifi**" deb nomlangan bo'lib, uning "**Hayvonlar harakatining lisoniy ifodalanishi va ularning leksik-semantik guruhlari**" nomli birinchi faslida lingvistikada til birliklarini alohida o'rganib bo'lmasligi va har qanday lisoniy hodisalar mohiyatini sistematik yondashuvga asoslanib, bo'linuvchanlik xususiyatidan kelib chiqib tadqiq qilinsagina ko'zlangan natijaga erishish mumkinligi haqida so'z boradi. Bu to'g'rida V.Gumboldt "Xalq ruhi va tili o'rtasidagi munosabat o'zaro zich bog'langanligini, ularni ayro tasavvur qilib bo'lmasligini bayon qilar ekan, tilni xalq ruhining tashqi voqelanishi, xalq tili uning ruhi, ayni paytda, xalq ruhi uning tili"¹⁴ ekanligini bayon etadi.

Tilshunos olim, professor A.Sobirov "*Akillamoq, irillamoq* leksemalari itga, *qulunlamoq, kishnamoq* otga, *qo'zilamoq, ma'ramoq* qo'yga, *qoqolamoq, cho'qimoq* tovuqqa nisbatan ishlatiladi va ular maydon yadrosini tashkil qiladi. Boqmoq, parvarishlamoq, yugurmoq, qamamoq, bog'lamoq kabi so'zlar ularning hammasiga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan periferiya – oraliqdagi leksemalar"¹⁵, deb yozadi.

Bu esa til fondidan o'rin olgan hayvon harakatini ifodalovchi til birliklariga alohida xususiyatlarga ega bo'lgan dialektik qonuniyatlarga asoslangan yaxlit bir butunlik sifatida yondashish kerakligini ko'rsatadi. Kognitiv faoliyat natijasida ong va lisonda bir-biri bilan muntazam aloqada bo'lganligi uchun ularni sistem-struktur munosabat asosida tadqiq qilish mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko'ra o'zbek tiliga oid lug'atlarda, o'zbek tilida yaratilgan turli davrlarga oid badiiy asarlarda va so'zlashuv tilimizda qo'llanuvchi hayvon harakatini ifodalagan 5000 ga yaqin misollar aniqlandi. Ularni dastlab semantik jihatdan quyidagi leksik-semantik guruhlarga ajratish mumkin:

1. Hayvonlarning ovoz harakatini ifodalovchi leksemalar leksik-semantik guruhlari.

2. Hayvonlarning bosh harakatini ifodalovchi leksemalar leksik-semantik guruhlari

3. Hayvonlarning dum harakatini ifodalovchi leksemalar leksik-semantik guruhlari.

4. Hayvonlarning oyoq (tuyoq) vositasidagi harakatini ifodalovchi leksemalar leksik-semantik guruhlari.

¹⁴ Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – В. 28

¹⁵ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – В. 85.

5. Hayvonlarning tana (gavda) vositasidagi harakatini ifodalovchi leksiksemalar leksik-semantik guruhlari.

6. Hayvonlarning og‘iz harakatini ifodalovchi leksemalar leksik-semantik guruhlari.

7. Hayvonlarning terisi bilan bog‘liq harakatni ifodalovchi leksemalar leksik-semantik guruhlari.

8. Hayvonlarning egasi bilan bog‘liq harakatni ifodalovchi leksemalar leksik-semantik guruhlari.

9. Hayvonlarning nasl qoldirishi bilan bog‘liq leksemalar leksik-semantik guruhlari.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli **“Hayvonlarning ovoz harakatini ifodalovchi so‘zlar tadqiqi”** deb nomlangan. Hayvonlar harakatini ifodalovchi leksik birliklarning qamrovi kengligi, til fondida bunday leksemalar soni va salmog‘i ko‘pligi inobatga olinib ushbu tadqiqotda it, ot, tuyaning ovoz, oyoq, oziqlanish harakatini ifodalovchi leksik-semantik guruhni tashkil qilgan leksemalar tadqiqi xususida so‘z boradi va it, ot, tuyaning ovozini ifodalovchi so‘zlar haqida fikr yuritiladi.

Yaratgan tomonidan faqatgina insonga nutq irod qilish, gapirish, so‘zlash orqali kommunikativ aloqa imkoniyati berilgan. Gapirish – insonlarga xos harakatlardan biri. Gapirishning harakat deb atalishiga sabab – bu jarayonni og‘iz-tovush apparatlari vujudga keltiradi. Insonda ikkinchi signal sistemasining mavjudligi, ya‘ni bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘ining faoliyati natijasida ular ongli sur‘atda kommunikatsiyaga kirishadilar. Garchi hayvonlar gapirmasalar-da, ular ma‘lum ma‘no ifodalovchi tovush chiqaradilar: vangillash – itning joni og‘rishi natijasida vovullashi; vovullash – itning hurishi; akillash – bo‘lar-bo‘lmasga vovullashi. Ular ovozlar orqali axborot uzatadilar.

Hayvonlar, asosan, oziq-ovqatga bo‘lgan talabi asosida, o‘zlarini xavf-xatardan himoya qilish maqsadida ovoz chiqaradilar. Ovozni ulardagi axborot uzatish usulining eng asosiylaridan biri desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Chingiz Aytmatov “Oq kema” qissasida hayvonlar hissiyotining namoyishini tabiiy-biologik jarayon ekanini ifodalaydi: “Buzoqcha huzur qilganidan ko‘zlarini qisib olgan, lablaridan so‘lak oqib turardi – u kampirning ko‘ylagini og‘iz to‘ldirib chaynashdan mazza qilayotgandi”; “Baltek (it – izoh bizniki) unga osilib dumini likillataveradi: yana umidvor edi”.

Shuningdek, ushbu bobda it, ot, tuyaning ovozini ifodalovchi so‘zlar tahlil etilgan. Jumladan, *angillamoq, akillamoq, hovullamoq, vovillamoq, vakillamoq, vangillamoq, uli tortmoq, xirillamoq, ovullamoq, uvillamoq, irillamoq, irildamoq, g‘ingshimoq; o‘v tortish, ulush, irildamoq, ing‘ramoq, XI asrda kēritti (kēritur, keritmāk), qīstashdī (qīstashur, qīstashmaq); ūrarlār, jaḥīladī (jaḥīlar jaḥīlamaq), siḥīlādī (siḥīlār siḥīlāmāk), ulīdī (ulīshur, ulīshmaq)* kabi leksemalar it ovozini ifodalaydi. Ovozni ifodalovchi so‘zlar tadqiqida leksik qatlamning muntazam ravishda o‘zgarib borishi ko‘rinadi.

Hayvon harakatini ifodalovchi so‘zlarda yuz bergan fonetik va semantik o‘zgarishlarni quyidagi jadval ko‘rinishida umumlashtirish lozim topildi:

1-jadval

Eski turkiy til	Eski o‘zbek til	Ma’nosi	Hozirgi o‘zbek tili
<i>jañiladi (jañilar jañilamaq)</i>	<i>Mavjud emas</i>	<i>Vingishladi</i>	<i>Baqirdi</i>
<i>Siñiladi (siñilär siñilämäk)</i>	<i>Mavjud emas</i>	<i>Vang‘illamoq</i>	<i>Chiyilladi</i>
<i>Ulidi (ulishur, ulishmaq)</i>	<i>Ulush (ulimoq)</i>	<i>Ulimoq</i>	<i>Cho‘ziq u-u-u tovushini chiqarmoq</i>

Kishnamoq leksemasida xalqning tarixiy va mental xususiyatlari o‘z ifodasini topgan. Obyektiv borliqda ot hayvonining og‘zidan chiqadigan tovushda kishnov elementi bo‘lmasa-da, o‘zbek tilida lisoniy jihatdan otning tovush chiqarish harakatiga nisbatan qo‘llanadi. Misol: *Tarlon jilovini silkib-silkib kishnadi, yulqib-yulqib kishnadi.* (Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom).

Bu so‘z juda uzoq tarixga ega. Eski turkiy tilda ham **kishnadi** so‘zi **kishnär, kishnämäk** variantlari bilan iste’molda bo‘lgan va hayvonning ovozigga nisbatan qo‘llangan. (DLT, III, 317). Biroq eski turkiy tilda kishnamoq so‘zi faqat xachirning ovozigga nisbatan qo‘llangan: *qatir kishnadi – xachir hangradi.* (DLT, III, 317).

“Devon”da keltirilgan otning ovozini ifodalovchi leksemalar bir nechta bo‘lib, shulardan biri **kökrädi** so‘zidir. U **kökrär, kökrämäk** variantlariga ega. (DLT, III, 279). Eski turkiy tilda bu so‘z quyidagi mazmunlarni ifodalash xususiyatiga ega ekanligi qayd etilgan: 1. Yovvoyi hayvonlarning tovushiga nisbatan “bo‘kirmoq” ma’nosini ifodalaydi. Masalan: *Arslan kökrädi – arslon bo‘kirdi.* 2. Otning tur-jins munosabatiga ko‘ra bu tovush faqat ayg‘irning (erkak otning) ovozigga nisbatan “kishnamoq” ma’nosini ifodalaydi. Masalan: *Bog‘ra kökrädi – ayg‘ir kishnadi.* 3. Chaqmoq chaqishiga nisbatan “hayqirmoq” ma’nosini ifodalaydi. Masalan: *Bulit kökrädi – osmonda bulutlar hayqirishdi.* (DLT, III, 279).

Eski turkiy tilda yuqoridagi leksema ishtirok etgan *tëgirmändä tug‘mish sichg‘an kök kökräkänä qo‘rqmas* maqoli ham mavjud. (DLT, III, 279). Bu maqol hozirgi kunda o‘zbek tili paremalari qatorida saqlanib qolgan. Davrlar o‘tishi bilan maqol leksemalari tarkibida fonetik o‘zgarish yuz bergan, lekin semantik xususiyati aynan XI asrdagi ma’nosiga to‘liq mos keladi. Misol: *Tegirmonda tug‘ilgan sichqon tomaqaldiroqdan qo‘rqmas*¹⁶.

Tahlilga olingan so‘z bugungi kunda momaqaldiroq ovozini ifodalovchi gumbur-gumbur taqlid so‘zining ma’nosiga teng. Shunday ekan, **kökrädi** leksemasi hozirgi o‘zbek tilidagi **gumburlamoq** ma’nosiga to‘g‘ri keladi.

Eski turkiy tilda aynan otlarning ovozini – kishnash harakatini ifodalovchi **oqradı** leksema mavjud bo‘lgan. Bu so‘z ham **oqrar, oqrmaq** variantlariga ega bo‘lib, kishnadi degan ma’noni bildiradi. Misol: Ot oqradı – ot ovqat yeyish vaqtida kishnadi. (DLT, I, 272). Bu so‘zning ko‘plik ma’nosi eski turkiy tilda **-sh** birgalik

¹⁶ Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент:1987. – Б. 110.

nisbat shakli bilan hosil qilingan. Masalan: *Jund qamug' oqrashdi* – [o'tni] ko'rib ot podasi kishnashdi. (DLT, I, 238).

Ot hayvoni asosan boshqa begona otni ko'rganda kishnaydi. Masalan: *Odam so'zlashib topishadi, yilqi kishnashib topishadi, Ziyodulla chavandoz! Shunday-shunday topishadi-da!*. (T.Murod. Ot kishnagan oqshom). Shuningdek, yilqichilik bilan shug'ullanuvchi chorvadorlar otning kishnov tovush chiqarishini, hayvonning biror xavfdan ogoh qilayotganini bildiradi. O'zini xavf-xatardan himoya qilishning o'ziga xos uslubi deyilar: *Tishlarini irjaytirib kishnadi. To'riqni ogoh qildi. Yaqinlashma, degan bo'ldi.* (T.Murod. Ot kishnagan oqshom).

Otning kishnov ovoz chiqarishi, kishnamoq ma'nosi keyingi XV-XVI asr adabiy manbalarida, xususan, Alisher Navoiy asarlari tilida quyidagi leksemalar vositasida ifodalanadi: 1) "Muhokamat ul-lug'atayn" da **oxranmäk** leksemasi bilan ifodalanadi; 2) asarning Anqara nashrida **ohrenmek** shaklida qayd etilgan¹⁷.

Har ikki so'z ham ot hayvonining ovoz harakati va holatini ifodalaydi. E'tiborlisi shundaki, o'zbek tilida **oxranmaq, ohrenmek, oqranmaq** so'zlari eskirib iste'moldan chiqqan, lekin turkiy tillar ichida ozarbayjon tilida bugungi kunda ham **oxranmaq** so'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" keltirilgan **oxranmäk shakli** qo'llanadi¹⁸. Hozirgi kunda ham ot hayvonining tovushini ifodalaydi. Bu holat esa yuqoridagi so'zlarni umumturkiy so'z sifatida o'rganishimiz uchun asos bo'la oladi.

O'zbek tili xalq og'zaki ijodi sanalmish xalq dostonlarida ot hayvonining o'ziga xos obrazlari tasvirlanganki, ular xalqimizning bu hayvon bilan o'rnatilgan kuchli do'stlik aloqalari, ijobiy munosabatlarini aks ettiradi. Misol:

Chingirib kishnaydi boylovli Chibor,

Siyosatman zarb ko'rsatdi qalmoqlar. ("Alpomish").

Xalq dostonlarida arqiramoq so'zi **na'ra tortmoq** ma'nosini ifodalaydi. Misol: *Boychibor boradi shunday arqirab.* ("Alpomish").

O'zbek tilida kishnamoq so'zi uslubiy maqsadda ba'zan insonga va predmetga ko'chiriladi. Masalan:

Ingramaydi kishnaydi,

Tilanchimas ishlaydi. (She'r. <https://uz.tgstat.com>)

Tishlaganda kishnaydi.

Kishnab-kishnab ishlaydi.

Ishlab ko'ngil xushlaydi. ("Topishmoqlar", Tikuv mashinasi. <https://ilmlar.uz>).

Bunday o'rinlarda kishnamoq leksemasining hayvon ovozigacha aloqadorlik semasi yo'qolib, shaxs xususiyatini "tezlik", "chaqqonlik" semalarini ifodalaydi. Narsa-buyumga, texnikaga nisbatan qo'llanganda esa "yaxshi yurmoq", "ovoz chiqarmoq" semalarini ifodalaydi.

O'zbek tilida kishnamoq so'zi ishtirok etgan **maqollar** mavjud bo'lib, ularda o'zbek xalqi madaniy turmushi, kognitiv faoliyati, milliy o'ziga xosligi aks etadi. Masalan: *Yaqin tursa tepishar, uzoq tursa kishnashar*¹⁹. Bu maqolda hayoti

¹⁷ Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 6.

¹⁸ <https://obastan.com/> (Murojaat sanasi: 11.02.2022).

¹⁹ So'zdan so'zning farqi bormi. <https://telemetr.me>. (Murojaat sanasi: 1. 01. 2022)

davomida kelisha olmaydigan, murosa qila olmay tortishadigan insonlarning uzoqlashganda esa bir-birining qadriga yetishi, sog'inishi haqidagi ko'chim ifodalanadi.

Bozlamq (bo'zlamq) eski turkiy tilda tuyaning ovozi ifodalovchi so'z sifatida iste'molda bo'lgan. Misol: *Titir bozladi – urg'ochi tuya bo'kirdi*. “Devon”da *bozlar, bozlamaq* kabi variantlari ham keltirilgan. (DLT, III, 202; 306). Shuningdek, “*Ol botuni bozlatti – u tuya bolasini onasidan ayirdi*” shaklidagi misolni ham uchramizki, unda qo'llangan botu so'zi bo'taloq so'zining tarixiy shaklini ifodalaydi. (DLT, II, 393). Bu fe'l o'timsiz bo'lib, tuyaning achchiq-achchiq yig'lashi, jismoniy ozor chekayotganini ko'rsatish uchun nutq irod qilishining bir shaklidir. Alisher Navoiy o'z asarlarida qattiq yig'lamoq ma'nosini ifodalash uchun yuqoridagi fe'lga ko'p bora murojaat etgan. Misol: *Bo'tam deb goh bozlab, goho o'kursi*²⁰. Bozlamq so'zining etimologiyasi musiqa ilmiga tutashadi. Eski turkiy xalqlardagi musiqa bilan bog'liq “bozuk”, ya'ni xalq og'zaki ijodidagi “bog'lama”dan kelib chiqqan bo'lib, shovqin qilmoq, qichqirmoq ma'nolarini bildiradi²¹. Ayrim manbalarda bözlä taqlid so'z asosida vujudga kelgan fe'l deb ham ko'rsatiladi²². Bizningcha, bu leksema taqlid so'zdan hosil qilinmagan. Borliqda tuya hayvonining ovozida “boz-boz” degan tovush elementi uchramaydi. Eski o'zbek tilida bu so'z XV asrdagi shaklda qo'llangan: *Bozlanib aydi: Xalo berahm onam*. (Gulxaniy. Zarbulmasal). Hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'zlamq leksemasi “o'kirib, uvvos tortib nola qilib yig'lamoq”; “zor yig'lamoq” ma'nosini ifodalashi ko'rsatib o'tilgan. (O'TIL, I; 398).

Bu leksema insonga nisbatan qo'llanganda “yig'lamoq”, “g'amga botmoq”, “kuchli qayg'u-iztirobda ezilmoq” kabi uslubiy xususiyatlarni; og'zaki va yozma matnlar tarkibida esa so'zlovchining tinglovchiga “achinish”, “hamdardlik” kabi subyektiv munosabatini yuzaga chiqaradi. Masalan: *Onaizor ham eridan, ham bolasidan ajralib bo'zlab qoldi. Bir yil ana shunday holda o'tdi*. (hadislar. <https://islom.ziyouz.com>).

Ikkinchi bobning “**Hayvonlarning oyoq harakatini ifodalovchi so'zlar tadqiqi**” nomli navbatdagi faslida hayvonlardagi yurish ma'nosini ifodalovchi leksik birliklar tahlilga tortilgan.

Oyoq organi, asosan, hayvonlarda (insonlarda ham) “ma'lum yo'nalishda harakat qilmoq, bir joydan boshqa joyga jilmoq, bormoq yoki ketmoq” (O'TIL, V, 92) ma'nosini bildirib, yurish harakatini anglatadi. Ushbu leksema O'TIL da 15 ta ma'noni ifodalashi ko'rsatib o'tilgan (O'TIL, V, 92-93).

Hayvonlarning yurish harakatini ifodalovchi fe'llar subyektning muayyan makonda oyoqlari vositasida amalga oshiriladigan harakat bo'lib, yurish harakatini ifodalovchi fe'llar deyiladi. Shu asosdan kelib chiqib hayvonlarda yurish ma'nosini quyidagi harakatlar orqali: 1) oyoq vositasidagi harakat; 2) gavda vositasidagi harakat kabi leksik-semantik guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin. Hayvonlarning oyoq vositasida amalga oshiradigan harakatlarini qamrab olgan so'zlarni ham uch

²⁰ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Э. Фозилов таҳрири остида. 4 жилдлик, 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 306.

²¹ <https://eksisozluk.com/>. (Murojaat sanasi: 2. 01. 2022)

²² Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 38.

guruhga bo'lish mumkin: 1. Yurish ma'nosini ifodalovchi so'zlar: *sakillamoq, izg'imoq, sörgilädi, yugurtmoq, japışhdi* kabi. 2. Tepish ma'nosini ifodalovchi so'zlar: *tepmoq, tepkilamoq, depsinmoq, to'pillamoq, tepinmoq*. 3. Tirnash (tatalash) ma'nosini ifodalovchi so'zlar: *tirnamoq, tatalamoq, timdalamoq*. Hayvonlar harakatini ifodalovchi fe'llarning katta qismi affikslar yordamida (morfologik usul) bilan yasalgan. Ularni hosil qiluvchi faol so'z yasovchi qo'shimcha sifatida -la affiksini ko'rsatamiz.

